

**MA’NAVIY-MA’RIFIY VA INTELLEKTUAL TADBIRLARNING O‘QUVCHILAR  
HAYOTIDAGI O‘RNI**

**Matkurbanova Dilfuza**

*Uchtepa tumanidagi 238-maktabning  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ta’lim jarayonini mazmunli tashkil etishda ma’naviy-ma’rifiy va intellektual tadbirlarning o‘quvchilar hayotidagi o‘rni muhim ekanligi ta’kidlangan. Tadbirlar orqali iste’dodlarni kashf qilish mumkinligi aytilgan. O‘quvchilarni tadbirlar orqali rag‘batlantirishning ta’lim jarayonidagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, tadbir shartlari, tadbir ishlanmasi va bayonnomasi, o‘quvchilarni rag‘batlantirish.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ta’lim jarayonini mazmunli tashkil etishning, barkamol avlodni tarbiyalashning tayanchlaridan biri hisoblanadi. Har bir fan o‘qituvchisi o‘z faniga o‘quvchilarni qiziqtira olishi va dars beradigan fanini o‘quvchilar chuqur o‘zlashtirishi uchun harakat qilmog‘i darkor. Faniga qiziqtira olsagina ta’limda samara va rivojlanish bo‘ladi, aks holda, hech qanday samara bermaydi. Shuning uchun doim pedagoglar o‘z ustida ishlab, dars jarayonini yangi usul va metodlar bilan boyitib borishi lozim. Dars mashg‘ulotlaridan tashqari turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali ham ta’lim samaradorligiga erishish mumkin. Shunga ko‘ra har xil tadbirlar: badiiy kecha, she’rxonlik, bahribayt musobaqasi, ma’naviy-ma’rify va intellektual tadbirlar o‘tkazib turilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayniqsa, ma’naviy-ma’rifiy va intellektual tadbirlarni sinflar kesimida, sinfda esa guruhlar kesimida o‘tkazilsa, juda yaxshi natija beradi. Bunda o‘quvchilar fanni o‘rganish orqali musiqa, teatr, aktyorlik sohalariga ham bir nazar tashlaydi, o‘zidagi qobiliyatlarni rivojlantiradi, ayni paytda tadbir orqali fanni ham chuqur o‘zlashtirishga harakat qilishadi, chunki savol-javob shartida fan bo‘yicha tuzilgan savollarga javob berish uchun ham yaxshi o‘qiydi. Shuningdek, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari har ikkala fan doirasida ham izlanadi. Bunday tadbirlar o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashiga imkon yaratadi. To‘g‘ri, biroz mehnat talab qiladi, lekin siz ishchan bo‘lib, bunga erinmay, ssenariy (tadbir ishlanmasi)ni tuzsangiz, shartlarni to‘g‘ri tanlay bilsangiz, nur ustiga a’lo nur bo‘ladi. Mazkur tadbir sinflar doirasida o‘tkazilganda ular o‘rtasida psixologik nuqtayi nazardan sog‘lom raqobatga zamin yaratiladi, ya’ni agar yutqizib qo‘yishsa ham keyingi safar yana tadbir bo‘lishini intiqlik bilan kutadi va tayyorgarlik ko‘rib yurishadi, bu albatta, samarali natija beradi. Sog‘lom raqobat ham kelajagimiz poydevori hisoblanadi. Tadbirlarni sinflar doirasida o‘tkazganda quyidagicha shartlarni qo‘llashimiz mumkin. Masalan, 5-sinflarda 1-shart. Tanishtirish, (guruh nomi, shiori kabilalar tanishtirilib, she’rlar aytishadi, agar fan oyligi bo‘lsa, masalan, tilga bag‘ishlangan she’rlar aytishi

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

mumkin) devoriy gazeta, bukletlari namoyish qilinadi. 2-shart. Adabiyot fanidan o‘tilgan mavzular bo‘yicha sahna ko‘rinishi topshirig‘i beriladi. 3-shrtda esa savol-javob o‘tkaziladi. Bunda har bir guruhdan bittadan o‘quvchi kelib bilet tortishadi va savolga javob berishadi. 4-shart. Raqs. Bunda o‘zlari tayyorlagan raqsga tushishadi, xohishiga qarab, bitta o‘quvchi yoki ko‘pchilik bo‘lib raqsga tushishi mumkin.(Erkin mavzu qilish mumkin.) 5-shart. Bahribayt o‘tkaziladi, oxirida qolgan guruh g‘olib bo‘ladi. Quyida shunga o‘xhash tadbirdan (5-sinflar o‘rtasida o‘tkazilgan tadbirdan to‘liq) namuna sifatida tashladik:

### TOSHKENT SHAHRI UCHTEPA TUMANI

2022-yil 17-oktabr kuni O‘zbek tiliga “Davlat tili” maqomi berilganining 33 yilligi munosabati bilan

5-“D” sinf o‘quvchilarining “Zukkolar”, 5-“E” sinf o‘quvchilarining “Bilimdonlar”, 5-“J” sinf o‘quvchilarining “Ma‘rifat” guruhlari o‘rtasida o‘tkazilgan “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim!” nomli ma’naviy-ma’rifiy va intellektual tadbir ishlanmasi

1.D.Matkurbanova tadbirni ochib berish uchun so‘z navbatini ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha rahbar o‘rnibosari F.F. Karimovga beradi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha rahbar o‘rnibosari F.F. Karimov tadbirni ochib beradi.

D.Matkurbanova so‘zga chiqib, hakamlar hay’ati va tadbir shartlari bilan tanishtiradi.

Hakamlar hay’ati a’zolari: kutubxonachi : N.Mahmadiyorova, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilar: G.Abdusamatova, D.Boboyorova.

Ushbu tadbir 5ta shartdan iborat. Har bir shart berilgan topshiriq bo‘yicha baholanadi.

**1-shart.** Tanishtirish. Guruh nomi, shiori, ijodiy ishlari sharhlanadi. (10 ballik tizimda baholanadi)

**2-shart.** “Bahribayt”. Bunda har bir guruh she’r qaysi harf bilan tugagan bo‘lsa, shu harfdan boshlanadigan she’rni galma-gal aytishadi, qaysi guruh to‘xtab qolsa, yutqizadi. Kelgan harfdan she’r aytgan guruh g‘olib bo‘ladi.

(10 ballik tizimda baholanadi)

**3-shart.** “Mahorat darsi” deb nomlanadi. Bunda har bir guruh adabiyot fanidagi yoki darslikdan tashqari o‘zlari sevib o‘qigan ertaklari bo‘yicha tayyorlagan sahna ko‘rinishini qo‘yishadi. (10 ballik tizimda baholanadi)

**4-shart.** “Bilimingizni sinang” deb nomlanadi. O‘qituvchi tomonidan savollar beriladi, o‘quvchilar og‘zaki javob berishadi. Har bir guruhga 5tadan savol beriladi. Har bir to‘g‘ri javobga 1balldan beriladi.(5 ballik tizimda baholanadi)

1.Nechta jarangli undoshning jarangsiz jufti bor, ular qaysilar?

2. Unli tovushlar nechta, sanab bering.

3. Til oldi undoshlari qaysilar?
4. Til o‘rta undoshini ayting.
5. Lab undoshlari nechaga bo‘linadi, ular qaysilar?
6. Bo‘g‘iz undoshi qaysi?
7. Sonorlarni sanang.
8. O‘zbek tilida nechta harf bor?
9. Harf birikmalari nechta, ular qaysilar?
10. Tovush ortishiga 5 ta misol ayting.
11. Tovush tushishiga 5ta misol keltiring.
12. Tovush almashishiga 5ta misol keltiring.
13. Ota safarga otlanayotgan o‘g‘illariga qanday maslahat beradi?
14. ”Uch o‘g‘a-ini botirlar” ertagi qanday ertak?
15. Ertakning yana qanday nomlari bor?

**5-shart.** Raqs.

**1-shartda** guruhlarning nomi va shiorlarini qay darajada ta’riflagani va ijodiy ishlariga qarab ball beriladi.

**2-shartda** o‘quvchilar adabiyot darsligida berilgan she’r va g‘azallarni hamda o‘zları mustaqil yodlagan she’rlaridan namunalar keltirishadi. She’r oxiri qaysi harf bilan tugasa, shu harfdan boshlanadigan she’rni keyingi guruh davom ettiradi. She’r aytishda ifodali qilib aytgani va tezkorligi ham inobatga olinib, ball qo‘yiladi.

**3-shartda** esa sahna ko‘rinishidagi rollarini qay darajada maromiga yetkazib o‘ynashi, aktyorlik mahorati, so‘zga chechanlik qobiliyatları inobatga olinadi.

**4-shartda savollar va topshiriqlar** beriladi. Berilgan javoblarga qarab ball qo‘yiladi.

**5-shartda esa raqslarini** qay darajada maqomiga yetkazib o‘ynagani inobatga olinadi.

Tadbir so‘ngida ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha rahbar o‘rinnbosari F.F. Karimov o‘quvchilar tadbiriga qay darajada qatnashganligini tahlil qiladi. Yutuq va kamchiliklarini aytadi, o‘quvchilarini rag‘batlantiradi. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi D.Matkurbanova ham o‘quvchilarini tabriklab, taqdirlaydi va tadbirni yakunlaydi.

Tadbirning bayonnomasi ham berildi

**TOSHKENT SHAHRI UCHTEPA TUMANI**

**2022-yil 17-oktabr kuni O‘zbek tiliga “Davlat tili” maqomi berilganining 33 yilligi munosabati bilan**

**5-“D” sinf o‘quvchilarining “Zukkolar”, 5-“E” sinf o‘quvchilarining “Bilimdonlar”, 5-“J” sinf o‘quvchilarining “Ma’rifat” guruhlari o‘rtasida o‘tkazilgan “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim!” nomli ma’naviy-ma’rifiy va intellektual tadbir**

**BAYONNOMASI O‘TKAZILGAN SANASI:** **2022-yil 17-oktabr**

**O‘TKAZILGAN JOYI:** **ma’naviyat xonasi**

**O'TKAZISHDAN MAQSAD:** o'quvchilarning o'zbek tiliga bo'lgan e'tiborini orttirish, tilimizning qadrini yanada oshirish hamda adabiyot faniga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish, ma'naviy ongini yuksaltirish. O'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish. Ayniqsa, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni ular ongiga singdirish va dunyoqarashini shakllantirish. Kitobga, adabiyotga va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatini yanada oshirish.

**Tadborda ishtirok etganlar: MMIBRO':** F.F. Karimov, 5-“D”, “E”, “J” sinf o'quvchilari, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari: D.Matkurbanova, G.Abdusamatova, D.Boboyorova, kutubxonachi: N.Mahmadiyorova.

2022- yil 17-oktabr kuni mактаб ma'naviyat xonasi 21-oktabr – O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan hamda ona tili va adabiyot fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash, o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish uchun o'tkazilgan tadbirni MMIBRO': F.F. Karimov o'zining kirish so'zлari bilan ochib berdi.

Keyin ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Matkurbanova Dilfuza so'zga chiqib, hakamlar hay'ati va tadbir shartlari bilan tanishtirdi.

Hakamlar hay'ati a'zolari: kutubxonachi: N. Mahmadiyorova,

ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari: G.Abdusamatova, D.Boboyorova. Ushbu tadbir 5ta shartdan iborat bo'lib, har bir shart berilgan topshiriq bo'yicha baholandi.

**1-shart.** Tanishtirish. Guruh nomi, shiori, ijodiy ishlari sharhlandi. (10 ballik tizimda baholandi) Quyidagicha:

**5-“D” sinf o'quvchilarining “Zukkolar” guruhi 8 ball to'pladi;**

**5-“E” sinf o'quvchilarining “Bilimdonlar” guruhi 8 ball to'pladi;**

**5-“J” sinf o'quvchilarining “Ma'rifat” guruhi guruhi 10 ball to'pladi.**

**2-shart.** “Bahribayt”. Bunda har bir guruh she'r qaysi harf bilan tugagan bo'lsa, shu harfdan boshlanadigan she'rlarni galma-gal aytishdi, o'quvchilarning topqirligi, tezligi va she'r aytish mahorati ham inobatga olindi, qaysi guruh birinchi to'xtab qolsa, 0 ball, ikkinchi tugatsa, 5 ball, oxirida qolgan guruh 10 ball bilan baholandi, ya'ni shu shartda oxirida she'r aytgan guruh g'olib bo'ldi. Ushbu shart bo'yicha quyidagi ballar qo'yildi:

**5-“D” sinfining “Zukkolar” guruhi 5 ball;**

**5-“E” sinfining “Bilimdonlar” guruhi 0 ball;**

**5-“J” sinfining “Ma'rifat” guruhi 10 ball.**

**3-shart.** “Mahorat darsi” deb nomlandi. Bunda har bir guruh adabiyot fanidagi yoki darslikdan tashqari o'zлari sevib o'qigan ertaklari bo'yicha tayyorlagan sahna ko'rinishini qo'yishdi. (10 ballik tizimda baholandi) Quyidagi ballar berildi:

**5-“D” sinf o'quvchilarining “Zukkolar” guruhi 5 ball;**

**5-“E” sinf o'quvchilarining “Bilimdonlar” guruhi 5 ball;**

**5-“J” sinf o'quvchilarining “Ma'rifat” guruhi 10 ball.**

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**4-shart.** “Bilimingizni sinang” deb nomlandi. O‘qituvchi tomonidan savollar berildi, o‘quvchilar og‘zaki javob berishdi. Har bir guruhga 5tadan savol berildi. Har bir to‘g‘ri javobga 2 balldan berildi.(10 ballik tizimda baholandi). Har bir guruh savollarga to‘g‘ri javob berishga harakat qilishdi, quyidagi ballarni to‘plashdi:

- 5-“D” sinf o‘quvchilarining “Zukkolar” guruhi 8 ball to‘pladi;**
- 5-“E” sinf o‘quvchilarining “Bilimdonlar” guruhi 7 ball to‘pladi;**
- ,5-“J” sinf o‘quvchilarining “Ma’rifat” guruhi guruhi 9 ball to‘pladi.**

**5-shartda esa raqslarini qay darajada maqomiga yetkazib o‘ynagani inobatga olinib, quyidagi tartibda baholandi:**

- 5-“D” sinf o‘quvchilarining “Zukkolar” guruhi 5 ball;**
- 5-“E” sinf o‘quvchilarining “Bilimdonlar” guruhi 6 ball;**
- ,5-“J” sinf o‘quvchilarining “Ma’rifat” guruhi 10 ball.**

Har bir guruhning to‘plagan ballarini kutubxonachi N. Mahmadiyorova o‘qib eshittirdi va kamchilik hamda yutuqlarini aytib o‘tdi. O‘quvchilarga keyingi ishlarida zafarlar tiladi. Quyidagicha baholandi:

T/r	5-“D” sinf “Zukkolar”	5-“E” sinf “Bilimdonlar”	5-“J” sinf “Ma’rifat”
1-shart	8	8	10
2-shart	5	0	10
3-shart	5	5	10
4-shart	8	7	9
5-shart	5	6	10
Jami:	31	26	49

5-“D” sinfning “Zukkolar” jamoasi 31 ball, 5-“E” sinfning “Bilimdonlar” jamoasi 26 ball, 5-“J” sinfning “Ma’rifat” jamoasi 49 ball to‘pladi.

- 5-“J” sinfning “Ma’rifat” jamoasi 1-o‘rin;
- 5-“D” sinfning “Zukkolar” jamoasi 2-o‘rin;
- 5-“E” sinfning “Bilimdonlar” jamoasi 3-o‘rinni olishdi.

**Ushbu tadbirdan fotolavhalar**



Tadbir so'nggida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinosari F.F. Karimov o'quvchilar tadbiriga qay darajada qatnashganligini tahlil qildi. Yutuq va kamchiliklarini aytди, o'quvchilarni rag'batlantirdi. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi D.Matkurbanova ham o'quvchilarni tabriklab, taqdirladi va tadbirni yakunladi.

Yana bitta tadbirning faqat shartlari va o'quvchilar to'plagan ballari, rasmlaridan tashlashni joiz deb bildik:

**Oktabr – ona tili va adabiyot ham o'zbek tili fanlari oyligi munosabati bilan**

**5-“D”, “E”, “J”, “I” sinflari o'rtasida o'tkazilgan “Balli, yigitlar!” nomli (faqat o'g'il bolalar o'rtasida o'tkazilgan) tadbirdan lavhalar**

Ushbu tadbir 5ta shartdan iborat. Har bir shart berilgan topshiriq bo'yicha baholanadi.

**1-shart.** “Masal aytish”. Bunda har bir guruh Ezop masallaridan aytadi. (10 ballik tizimda baholanadi)

**2-shart.** “Sahnamizni tomosha qiling” deb nomlanadi. Bunda har bir guruh adabiyot fanidan o‘zлari tayyorlagan sahna ko‘rinishini qo‘yishadi. (10 ballik tizimda baholanadi)

**3shart.** “Savol bering, javob beramiz” deb nomlanadi. O‘qituvchi tomonidan savollar beriladi, o‘quvchilar og‘zaki javob berishadi. Har bir guruhga 5tadan savol beriladi. Har bir to‘g‘ri javobga 1balldan beriladi.(5 ballik tizimda baholanadi)

**4-shart.** Raqs.

**1-shartda** o‘quvchilar adabiyot darsligida berilgan she’r va g‘azallarni hamda o‘zлari mustaqil yodlagan she’rlaridan namunalar keltirishadi. She’r aytishda ifodali qilib aytgani va tezkorligiga ham qarab ball qo‘yiladi.

**2-shartda esa sahna ko‘rinishidagi rollarini** qay darajada maromiga yetkazib o‘ynashi, aktyorlik mahorati, so‘zga chechanlik qobiliyatları inobatga olinadi.

**3-shartda savollar va topshiriqlar** beriladi. Berilgan javoblarga qarab ball qo‘yiladi.

**4-shartda esa raqslarini** qay darajada maqomiga yetkazib o‘ynagani inobatga olinadi.

Har bir guruhning to‘plagan ballarini o‘zbek tili gani o‘qituvchisi N.Baratova o‘qib eshittirdi va kamchilik hamda yutuqlarini aytib o‘tdi. O‘quvchilarga keyingi ishlarida zafarlar tiladi. Quyidagicha baholandı:

T/r	5-“D” sinf	5-“E” sinf	5-“J” sinf	5-“I” sinf
1-shart	10	10	8	10
2-shart	10	8	9	9
3-shart	5	3,5	4	4
4-shart	10	9	10	9
Jami:	35	30,5	31	32

5-“D” sinf” jamoasi 35 ball, 5-“E” sinf” jamoasi 30,5 ball, 5-“J” sinf” jamoasi 31 ball; 5-“I” sinf” jamoasi 32 ball to‘pladi.

5-“D” sinf” jamoasi 35 ball 1- o‘rin;

5-“I” sinf” jamoasi 33 ball 2- o‘rin;

5-“J” sinf” jamoasi 31 ball 3-o‘rin;

5-“E” sinf” jamoasi 30,5 ball to‘plab, 4-o‘rinni olishdi.

**5-“D”, “E”, “J”, “I” sinflari o‘rtasida o‘tkazilgan tadbirdan fotolavhalar**



Ushbu tarzda tadbirlar o‘tkazilib, yaxshi qatnashgan o‘quvchilarni, guruhnini rag‘batlantirib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchilarning tafakkuri

kengayadi, o'quvchilar faoliyatida oldinga harakat qilish, siljish, rivojlanish bo'ladi. Fanga nisbatan qiziqishi ortib boradi. Keyingi tadbirlar uchun rejalar o'ylab topa boshlaydi, sahna ko'rinishlari qidiradi, she'rlar yodlab yuradigan bo'ladi. Hatto kutubxonaga kirib materiallar yig'ish uchun kitoblar so'raydi (aynan tadbir uchun). Har holda kelajak uchun rejalar tuza boshlaydi, yangi g'oyalarni o'ylab topadi, izlanadi. Shuning uchun har bir ustoz ma'naviy-ma'rifiy va intellektual tadbirlar o'tkazib turishi kelajak taraqqiyoti uchun zamin yaratishi zarur. Bu kabi izlanishlar o'quvchilar tafakkurining kengayishiga, hozirjavobligi, mulohazakorligi oshishiga olib keladi, ustozlar faoliyatida esa yangi davr farzandlarini kamol toptirishga erishiladi.